

“PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV MENING NIGOHIMDA”

Muxlisa Mashrabova

Andijon Davlat Universiteti San’atshunsolik fakulteti
“Vokal xonandaligi” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning bosib o’tgan hayot yo’li, Yurtimiz rivoji uchun qilayotgan ezgu ishlari, Pandemiya davridagi O’zbekiston siyosati va yoshlarga oid davlat siyosati , Vatanimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi tutgan o’rni haqida.

Kalit so’zlar:

Prezident, mustaqillik, boshqaruv, davlat,

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 1957-yil 24- iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tug’ilgan. Millati-o’zbek. Oliy ma’lumotli, 1918-yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligi mexanizatsiyalash muhandislari institutini tugatgan. Muhandis- mexanik mutaxasisliklariga ega.Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutidan boshlab, kichik ilmiy xodim, katta o’qituvchi, dotsent, o’quv ishlari bo’yicha prorektor lavozimlaridan boshladi.

1990-yili Respublika Oliy Soveti deputatligiga saylanib, ayni vaqtida Mandat komissiyasining raisi sifatida faoliyat ko’rsatdi.

1992-yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulug’bek tumani hokimi lavozimidga tayinlandi. Keyinchalik Jizzax va Samarqand viloyatlariga hokimlik vazifasini bajardi. Ushbu viloyat va tumanlarini har jihatdan o’sishi uchun o’zining kamtarona hissasini qo’shdi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2003-yilda O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib tasdiqlandi va ushbu lavozimga yana uch marta Oliy Majlis palatalari tomonidan qayta tasdiqlandi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning yuksak ishonchini qozonib, uning eng yaqin safdoshi va maslakdoshi sifatida samarali faoliyat olib bormoqda. 2016-yildan shu kunga qadar Shavkat Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimida faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

Prezidentimiz o’z faoliyatlari davomida sanoat, qishloq xo’jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko’rsatish sohalarida salmoqli yutuqlarni qo’lga kiritdi. Ayniqsa, har qachongidan ham og’ir bo’lgan bu yilgi mavsumda mirishkor dehqon va fermerlarimiz fidokorona mehnat qilganlarini alohida ta’kidlash lozim. Aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o’tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda o’shirildi. Xususan, pedagog xodimlarning ish haqi so’nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko’paytirildi. Ko’rilgan chora tadbirlar tufayli aholining real umumiylar daromadlari 2017 yilga nisbatan 12 foizga oshdi.

Ma’lumki, 2020-yil barcha uchun sinovli davr bo’ldi. Ya’ni koronavirus infeksiyasi butun dunyoga taxdid soldi. Ushbu davrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning olib borgan siyosati taxsingga sazovor. Barcha sohalardagi amalga oshirilayotgan ishlar xalqimiz sog’ligi ularni ertangi kunga tinch, sog’-salomat , va baxtli farovon bo’lib yetishishlari uchun xizmat qiladi. Nogironligi bo’lgan, boquvchisisiz va pulga muhtoj bo’lgan oilalar davlatning alohida e’tiborida bo’ldilar. Bugunga kelib ushbu xavfli infeksiya juda ham ko’p davlatlarda tarqaldi. Bu vaziyat oldindan to’g’ri baholanib, Prezidentimiz topshirig’iga muvofiq Respublika maxsus komissiyasi tuzilgan edi. Shu bois O’zbekistonga kasallikning ommaviy kirib kelishi va keng tarqalishini oldini olish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir hududda hokimlar rahbarligida maxsus shtablar tashkil etilgan. Epidemiologik vaziyat bo’yicha har soatlik va kunlik ma’limotlar tahlil qilinib, tezkor choralar ko’rilmoxda.

Prezidentimiz yoshlarga judda kata e'tibor qaratadilar. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi buning eng yorqin misolidir. Qonun 2016-yil 12-avgustida qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iboratdir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarini ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularni intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart- sharoitlar yaratilishi nazarda tutilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash:;

Yoshlarning hayoti va sog'ligini saqlash;

Yoshlarni ma'naviy, intellektual jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga qaratilgan.

Yoshlar uchun ochiq va sifatlari ta'limni ta'minlash

Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart- sharoitlar yaratish va hokazolardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotida alohida mavqega ega mustaqil, tinch davlatlardan biri hisoblanadi. Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 1945-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot . O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilinganidan keyin ko'p o'tmay 1992- yil 2-martida BMT ga a'zo bo'ldi. Shu kuni BMT Bosh Assembiliyasi binosi oldida O'zRning Davlat bayrog'i ko'tarildi. BMT ning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMT da O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi BMT ning ta'lif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'llanuvchi tashkiloti-YUNESKOga ham a'zo bo'ldi. O'zbekiston o'z ovozi va mavqeyiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yyapti. O'zbekiston Respublikasi BMT ning huquqli a'zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotining maqsad va qoidalariga qat'iy amal qilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizning ushbu xalqaro tashkilotdagi nufuzli o'rni yanada oshayotganligi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlatimizda olib borayotgan siyosatidan darak beradi.

Foydalanimizda adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Taqnidiy taxlil, qatiy talab intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Asari "O'zbekiston" 2017-yil
2. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirish kirish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.
3. WWW.bbb.com